

O'zbekiston – Qozog'iston: ilmiy hamkorlik aloqalari

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.S.Yuldashev ham FA bosh ilmiy kotibi G'.A.Baxadirovlar Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasi prezidenti M.Jurinov taklifiga binoan Qozog'istonda safarda bo'lib turibdilar.

Safar davomida Qozoq Milliy agrar universitetida uchrashuv o'tkazildi. Unda ikki davlat ilmiy hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, kengaytirish, yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.



Uchrashuvda O'zR FA prezidenti B.S.Yuldashevga Qozoq Milliy agrar universiteti Faxriy professori unvoni topshirildi.

